"Innovations in Science and Technologies" scientific electronic journal
www.innoist.uz
ISSN : 3030-3451
Volume 1
№ 1
February, 2024

# EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT UCHUN DAVLAT INTERAKTIV XIZMATLARI FAOLIYATI BO‘YICHA TAVSIYALARNING QO‘LLANISH ISTIQBOLLARI

G‘azatov Jamoliddin Abduvoitovich
TATU Nurafshon filiali MIBDO‘
E-mail: jamol828@gmail.com

Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi islohotlar, barcha sohalar va davlat boshqaruvi organlari oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalar va telekommunikasiya tizimlarini rivojlantirish va ularni xayotga keng joriy qilinishiga erishilmokda.

Jumladan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilgan, ko‘p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish orqali jamiyatimizning ichki mustahkamligi va ijtimoiy birligini tashkil etish, rivojlangan davlatlar hayoti standartlariga chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qancha farmonlar va qarorlar qabul qilinib, ular amalga tatbiq qilinmokda.

AKTning ta’siri kam bo‘lib, uning rivojlanishi faqat muayyan darajaga yetganidan keyingina yalpi ichki mahsulotning jon boshiga o‘sishini ta’minlash mumkinligi qayd etilgan. Respublikamiz iqtisodiy sektoriga AKTga jalb etilgan investitsiyalar hajmi oxirgi yillar mobaynida tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlari va korxonalari bo‘yicha sof foyda miqdori ortganligi fikrimiz isboti bo‘la oladi.




*1.-rasm. Davlat va fuqarolarning interaktiv xzmatlarini baholash mezonlari.*

Yuqorida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, davalat va fuqarolarning interaktiv xizmatlardan foydalanish jarayonlarini baholash va ularni monitoring qilish natjasida:

Foydalanuvchi va davlat:

- mavjud davlat interaktiv xizmatlarini tahlil qilish;
- foydalanuvchilar uchun tushunarli va qulay bo'lgan interaktiv xizmatlarni taklif etish;
- interaktiv xizmat turlarini aniqlash va kengaytirish;
- interaktiv xizmat turlarini tashkil etishda mavjud me'yoriy -huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- davlat interaktiv xizmatlarida axborot resurslari konfidensialligini ta'minlash;
- interaktiv xizmatlarda mijozlar bilan bo'ladigan munosabatlarni boshqarish;
- interaktiv xizmatlarni baholashda foydalanilayotgan mavjud modellarni tahlil etish va ularga qo'shimchalar kiritish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida AKTni qo'llash uning natijaviy samaradorligini, xususan, axborotning o'zaro ta'siri, qayta ishlanishi va izlanishini amalga oshirish uchun vaqt qisqarishi hisobiga unumdorlikni o'rtacha 20 foizga ko'paytirish imkonini yaratadi.

Islohotlarning amalga oshirilishida xo'jalik boshqaruvi hamda hokimiyat organlarida axborot texnologiyalarini faol o'zlashtirish va keng joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra:

- davlat boshqaruvi organlarining 97 foizi o'z saytlariga ega bo'ldi, 90 foizida lokal kompyuter tarmoqlari tashkil etildi;
- Mustaqillik yillarida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida AKTning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi tufayli O'zbekiston Respublikasining global axborot hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmokda.




*2.-rasm. Davlat va fuqarolarning interaktiv xzmatlarini baholash mezonlari[1-4].*

Xulosa o'rnida aytib o'tmoq joiz, biz qanchalik e'tiborli bo'lsak, interaktiv xizmatlardan to'laqonli foydalansak, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniq va ravon yoritib bera olsak, davlat tashkilotlarining ish faoliyatini rivojlantirish va ularni baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Bugungi kunga kelib kadastr soxasida inrekativ xizmatlar ko'rsatishga bo'lgan talabning ortib borishi, tizimda zamonaviy AKTni joriy qilish masalalari dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shuni inobatga olish kerakki, ijro xokimiyati faoliyatida bu jarayon jadallik bilan ilgarilayapti. Yqorida olib borilgan taxlillar va ishlab chiqilgan xamda tavsiya etilgan algoritmlar asosida ko'chmas mulk savdosi xujjatlarini elektron rasmiylashtirish interaktiv xizmati ishlab chiqildi.




*3.-rasm. Interaktiv xizmat bosh oynasi.*

Ishlab chiqilgan tizim sinovdan o'tkazildi va aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi. Interaktiv xizmat jismoniy va yuridik o'axslar uchun onlayn rejimda xizmat qo'rsati. Jismoniy shaxs tegishli shaklga so'ralgan ma'lumotlarni kiritadi va yagona interaktiv davlat xizmatlar portalidan olingan va shakllantirilgan yelektron xuddatlarni xam biriktiradi.

- davlat interaktiv xizmatlarining baholash dasturiy ta'minoti yaratildi;
- masofaviy xiyamatlarning sifat monitoringi jarayonlari tahlil etildi;
- yangicha xizmatlarni tavsiyalarni qo'llanish istiqbollari keltirib o'tildi;
- mavjud davlat interaktiv xizmatlarini tahlil qilish;
- foydalanuvchilar uchun tushunarli va qulay bo'lgan interaktiv xizmatlarni taklif etish;
- interaktiv xizmat turlarini aniqlash va kengaytirish;
- interaktiv xizmat turlarini tashkil etishda mavjud me'yoriy -huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- interaktiv xizmatlarda mijozlar bilan bo'ladigan munosabatlarni boshqarish;
- interaktiv xizmatlarni taklibaholashda foydalanilayotgan mavjud modellarni tahlil etish va ularga qo'shimchalar kiritish imkoniyatlariga ega bo'ldi [5].

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi "Elektron hukumat tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4328-sonli qarori,

3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - T. 1997.

4. O'zbekiston Respublikasining: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'isida»gi Qonuni. - T. 1997.

5. Baranovskaya T. P., Loyko V. I. i dr. «Informasionnye sistemy i texnologii v ekonomike:Uchebnik»M:Finansy i statistika,2003–416 s.